

KELAJAK PSIXOLOGLARINING KASBIY IDENTIKLIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17082328>

Axmadjonova Shaxruza

*O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti 3-bosqich
talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada kelajak psixologlarning kasbiy identiklik shakllanishi, uning asosiy xususiyatlari hamda ta'lim jarayonida psixologik va pedagogik omillar ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, psixologik identiklikning kasbiy motivatsiya, o'z-o'zini anglash va professional kompetensiyalar bilan o'zaro bog'liqligi yoritiladi.

Kalit so'zlar

kasbiy identiklik, kelajak psixologlar, professional kompetensiya, motivatsiya, psixologik rivojlanish.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida inson shaxsining kasbiy shakllanishi va o'zini jamiyatda topishi masalalari ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda. Ayniqsa, kelajak psixologlarning kasbiy identikligini shakllantirish jarayoni zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Chunki psixologik xizmat sohasi kengayib, ijtimoiy hayotning turli jabhalarida — ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish, huquq-tartibot, ijtimoiy himoya va oilaviy munosabatlarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, kelajak psixologlarda kasbiy identiklikni rivojlantirish, ularning professional o'zligini shakllantirish, jamiyatdagi roli va mas'uliyatini anglashga yo'naltirish zamon talabi hisoblanadi.

Kasbiy identiklik tushunchasi psixologiya fanida keng tadqiq etilgan bo'lib, E. Erikson va J. Marcia kabi olimlar tomonidan shaxsiy identiklik nazariyalari asosida ishlab chiqilgan. Ularning fikriga ko'ra, shaxsiy identiklik — bu insonning o'zini anglash, kimligini, qaysi ijtimoiy rolga mansubligini bilishi; kasbiy identiklik esa uning tanlagan kasbi bilan bog'liq o'zini anglash darajasi, professional o'zligini baholash va kasbiy qadriyatlarni egallash jarayonidir. Demak, psixolog sifatida professional shakllanish — bu nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallash, balki kasbiy o'zlikni chuqur anglashni ham talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash, jumladan, psixolog kadrlarning kasbiy rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida ta'lim sifatini oshirish, kadrlarning malakasini xalqaro talablarga moslashtirish, shuningdek, yoshlarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan [1]. Ushbu hujjat, avvalo, kelajak psixologlarning kasbiy identiklik darajasini shakllantirish, ularning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim va fan tizimini isloh qilish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha keng qamrovli vazifalar belgilab berilgan [2]. Bu strategik hujjat nafaqat umumiy ta'lim sifatini, balki oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kelajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va identikligini mustahkamlashga qaratilgan. Ayniqsa, psixologiya sohasida faoliyat yuritadigan yoshlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayonni samarali tashkil etish nafaqat individual rivojlanish, balki ijtimoiy taraqqiyot uchun ham katta ahamiyatga ega. Shu bois, ushbu maqola doirasida kelajak psixologlarda kasbiy identiklik shakllanishining psixologik va ijtimoiy omillari tahlil qilinadi.

Kasbiy identiklik tushunchasi psixologiyada shaxsning o'zini tanlagan kasb bilan o'zaro bog'lash jarayonini anglatadi. U shaxsning o'z qobiliyatlari, qiziqishlari, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashtirishi natijasida shakllanadi. Eriksonning identiklik nazariyasiga ko'ra, inson o'zligini anglash jarayonida turli ijtimoiy rollarni qabul qiladi, ularni sinovdan o'tkazadi va yakunida o'zini muayyan kasb doirasida tasdiqlaydi. J. Marcia esa bu jarayonni to'rt xil identiklik statusi orqali tushuntiradi: diffuziya (o'zini anglashning yo'qligi), moratoriy (qidiruv jarayoni), foreklosure (tayyor qarorlarni qabul qilish) va muvaffaqiyatli identiklik (o'z kasbini ongli ravishda tanlash).

Kelajak psixologlarning kasbiy identikligi ana shu nazariy tamoyillar asosida shakllanadi. Ular dastlab psixologiya faniga qiziqish bildiradi, keyinchalik esa o'qish va amaliyot jarayonida kasbiy qadriyatlarni egallab, professional "Men"

obrazini shakllantiradi. Bunda o'z-o'zini anglash, shaxsiy qadriyatlarni kasb bilan uyg'unlashtirish va ijtimoiy tajriba hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Kelajak psixologlarning kasbiy identikligi o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega. Birinchidan, ularning kasbiy o'zligi ko'pincha ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Talabalik davrida psixologiyada o'qiyotgan yoshlar o'zlarini jamiyatda inson ruhiyati bilan ishlovchi, yordam beruvchi mutaxassis sifatida tasavvur qilishadi. Bu esa ularda kasbiy maqsadlarni anglashni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, kasbiy identiklikda motivatsiya muhim omil hisoblanadi. Psixolog bo'lishni istagan talabalar ko'pincha odamlar bilan ishlash, ularning muammolarini hal qilish va jamiyatga foyda keltirish motivlariga tayanadilar. Bu motivlar ta'lim jarayonida kuchayishi yoki susayishi mumkin. Masalan, amaliyot davrida uchraydigan qiyinchiliklar, mas'uliyatli vaziyatlar talabalarda o'z kasbiga nisbatan tanqidiy qarashni kuchaytiradi.

Uchinchidan, kasbiy identiklikda shaxsiy sifatlar ham muhim o'rin tutadi. Empatiya, sabr-toqat, kommunikativ qobiliyat, tinglay olish mahorati psixologik kasbining poydevorini tashkil etadi. Shu bois, ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilim, balki shaxsiy fazilatlarining rivojlanishi ham kasbiy identiklikning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy identiklikni shakllantirishda oliy ta'lim tizimi hal qiluvchi omillardan biridir. Psixologiya ta'limi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga olishi zarur. Psixologiya fakultetlarida o'quv rejalari kasbiy identiklikni shakllantirishga xizmat qiluvchi fanlarni qamrab oladi: umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, psixodagnostika, psixokorreksiya va boshqalar.

Amaliyot jarayoni esa bu bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Talabalar maktab, klinika, ijtimoiy muassasalarda amaliyot o'taganda, o'z kasbiga nisbatan yanada chuqurroq tasavvurga ega bo'ladi. Bu esa ularda "Men - kelajak psixologman" degan kasbiy o'zlikni shakllantiradi.

Shuningdek, ustoz-murabbiylarning roli ham katta. Tajribali psixologlarning kasbiy faoliyatiga guvoh bo'lish, ularning ish uslublarini kuzatish va maslahat olish talabalarda kasbiy qadriyatlarni mustahkamlaydi.

Kasbiy identiklik ijtimoiy muhitdan ham mustaqil emas. O'zbek jamiyatida so'nggi yillarda psixologik xizmatga talab ortib bormoqda. Bu esa psixolog kasbining ijtimoiy nufuzini oshiradi. Jamiyatda psixologning o'рни, uning kasbiy obro'si kelajak mutaxassislarning kasbiy o'zligini shakllantirishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, oila va yaqin atrofdagilar fikri ham ahamiyatlidir. Talabanning kasb tanlashdagi qarori, unga bo'lgan sadoqati ko'pincha oilaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashadi. Agar oila psixologiya kasbini qo'llab-quvvatlasa, bu kasbiy identiklikni mustahkamlaydi. Aksincha, salbiy qarashlar talabanning o'zini kasbda tasdiqlash jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

Kelajak psixologlarda kasbiy identiklikni shakllantirish uchun quyidagi mexanizmlar muhim hisoblanadi:

- Kasbiy ta'lim va tarbiya: nazariy bilimlar bilan bir qatorda, kasbiy etika, deontologik me'yorlar, psixologning ijtimoiy mas'uliyati haqida ma'lumot berish.
- Amaliy tajriba: psixologik maslahat, trening, suhbat o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Refleksiya: talabalarni o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan saboq olish va kasbiy rivojlanish rejasini ishlab chiqishga o'rgatish.
- Professional jamiyat bilan integratsiya: talabalarni psixologlar uyushmalari, ilmiy konferensiyalar, seminar va davra suhbatlariga jalb qilish.

Bu mexanizmlar kelajak psixologlarning kasbiy identiklik xususiyatlarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kasbiy identiklik psixolog mutaxassis uchun bir necha yo'nalishda muhim ahamiyatga ega:

- Professional samaradorlik: o'zini psixolog sifatida anglagan shaxs mijozlar bilan samarali ishlaydi, mas'uliyatni chuqur his qiladi.
- Kasbiy barqarorlik: aniq kasbiy o'zlik psixologga stress va qiyinchiliklarga bardosh berish imkonini beradi.
- Shaxsiy rivojlanish: kasbiy identiklik shaxsiy qadriyatlar va hayotiy maqsadlar bilan uyg'unlashganda, insonning o'z-o'zini anglash jarayoni boyiydi.
- Jamiyat oldidagi mas'uliyat: psixologning kasbiy identikligi uning ijtimoiy rolini belgilaydi, jamiyatda psixologik madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Asosiy bo'limda ko'rib chiqilganidek, kelajak psixologlarning kasbiy identikligi nazariy asoslar, shaxsiy xususiyatlar, ta'lim jarayoni, amaliyot, ijtimoiy-madaniy muhit va shaxsiy motivatsiyaning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Uni rivojlantirish mexanizmlari aniq yo'naltirilgan ta'lim, amaliy tajriba, refleksiya va professional jamoaga integratsiya orqali samarali kechadi. Kasbiy identiklikning yuqori darajada shakllanishi esa psixologning professional faoliyatini samarali, barqaror va ijtimoiy ahamiyatli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" gi PF-5847-son Farmoni. – T.: Prezident.uz, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni. – T.: Lex.uz, 2022.